

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMUY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMUY KENGASH**
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

BERDIYEV ANVAR ABDIVALIYEVICH

**SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISHNI BOSHQARISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyası
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari fanlari bo‘yicha doktori (PhD)
dissertasiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

Berdiev Anvar Abdvaliyevich

Suv resurslaridan foydalanishni boshqarish tizimini takomillashtirish 3

Бердиев Анвар Авдивалиевич

Совершенствование системы управления использованием водных
ресурсов 29

Berdiev Anvar Abdvalievich

Improving the management system for the use of water resources 55

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 60

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMUY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMUY KENGASH**
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

BERDIYEV ANVAR ABDIVALIYEVICH

**SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISHNI BOSHQARISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyası
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Iqt4226 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsue.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lif portalida (www.zionet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Turdiyev Abdullo Sagdullayevich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Saidov Mash'al Samadovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Axmedov Sayfulllo Normatovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor


Yetakchi tashkilot

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.L16.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «17» «06» kuni soat «11:00» dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (99871) 239-01-49; faks: (99871) 239-41-23; ye-mail: tdiu@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (99871) 239-28-75; faks: (99871) 239-28-75.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «04» 06 kuni tarqatildi.
(2025-yil «04» 06 dagi raqamli reestr bayonnomasi).



KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. «Jahonda Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkilotining (OECD) prognozlariga ko‘ra, zamonaviy ishlab chiqarish usuli va iste’mol darajasi bilan 2050 yilga borib, 2000 yilga nisbatan dunyo o’simlik va hayvonot dunyosining 61% dan 72% gacha va tabiiy hududlarning xavfsizligi 7,5 million kvadrat metrga qaytarib bo‘lmaydigan darajada buziladi»¹. 2015 yilda «Global Footprint Network» loyihasining bir guruh olimlari hisob-kitoblariga ko‘ra, sayyoramizning yillik resurslari atigi 7 oy 13 kun ichida tugagan. Olimlar 1970 yillardan buyon shunga o‘xhash hisob-kitoblarni amalga oshirmoqdalar va ma’lum bo‘lishicha, yillik resurslar har yili tezroq va tezroq sarflanmoqda. Bu esa ekologik muammolarni, shu jumladan suv resurslarini asrashni taqozo etadi.

«Jahon aholisi tez o‘sib borishi natijasida 2030 yilga borib talab va mavjud suv ta’minoti o‘rtasidagi 40% taqchillikka duch kelishi, 2050 yilga borib 10 milliard aholini oziqlantirish uchun qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni 50 foizga (bu bugungi kunda resursning 70 foizini iste’mol qiladi) va suv olish hajmini 15 foizga oshirishni talab qilishi bashorat qilinmoqda. Dunyo aholisining 40 % dan ortig‘i suv tanqis bo‘lgan hududlarda yashaydi va dunyo yalpi ichki mahsulotining taxminan $\frac{1}{4}$ qismi bu muammoga duch kelishi, 2040 yilga kelib, har to‘rt boladan biri haddan tashqari suv tanqisligi bo‘lgan hududlarda yashashi kutilmoqda. Suv rerurslari bilan ta’minalash va undan oqilona foydalanishni boshqarish bugungi kunda ko‘plab mamlakatlar uchun katta va tez-tez o‘sib borayotgan muammodir. Bundan tashqari, surunkali suv tanqisligi, gidrologik noaniqlik va ekstremal ob-havo hodisalari (suv toshqini va qirg‘oqchilik) global farovonlik va barqarorlik uchun eng katta tahdidlardan biri sifatida qabul qilinadi. Suv tanqisligi va qirg‘oqchilik mamlakatlar o‘rtasida mojarolarning kuchayishiga sabab bo‘lmoqda»².

«O‘zbekiston Respublikasida sanoat korxonalari suv resurslari iste’moli sezilarli oshdi, ammo yer usti suvlari teng taqsimlanmaganligi sababli sanoat maqsadida yer osti suvlaridan foydalanishga to‘g‘ri kelmoqda. Sanoat korxonalari yer osti suv zaxiralaridan samarali foydalanishni optimallashtirish, suv ta’minoti tizimini takomillashtirish va suv resurslaridan takror foydalanish texnologiyalarini rivojlantirish yo‘lida keng qamrovli tadbirlar amalga oshirilmoqda»³. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «31-maqсад: Suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni iqtisod qilish bo‘yicha alohida davlat dasturini amalga oshirish. Suv resurslaridan samarali foydalanish hisobiga kamida 7 milliard kub metr suvni iqtisod qilish» alohida maqsad qilib qo‘yilgan. Bu vazifani amalga oshirishda sanoat korxonalari suv ta’minoti tizimining samarador va ishonchli ishlashini ta’minalash, shuningdek,

¹ <https://cyberleninka.ru/article/n/zelenaya-ekonomika-suschnost-printsipy-i-perspektivy>

² [https://www.worldbank.org/en/topic/water resources management](https://www.worldbank.org/en/topic/water-resources-management)

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28-yanvardagi «2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» gi PF-60 sonli farmoni

ulardan tejamkor foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 30 noyabrdagi «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida O'RQ-733-son qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-noyabrdagi «Suv ta'minoti va suv chiqarish xizmati ko'rsatish sohasida to'lov intizomini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5241-sonli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 iyuldagи «O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-6024-sonli farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 15-dekabrdagi «Innovasion loyihibar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-916-sonli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 25-sentabrdagi «Suv obektlarini muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3286-sonli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-dekabrdagi «Yer osti suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-439-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 3 apreldagi «Suvdan foydalanish va suv iste'molida suv resurslarining hisobi va hisobotini hamda monitoringini yuritish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 174-sonli, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 sentabrdagi «O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligi vazirligi faoliyatiga doir ayrim qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish to'g'risida»gi 573-sonli qarorlari va bu sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar tadqiqotning ma'lum darajada bajarilishiga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'r ganilganlik darajasi. Suv resurslaridan foydalanishni boshqarish mexanizmlarini tadqiq etish masalalariga xorijlik olimlarning ilmiy ishlarida katta e'tibor karatilgan. Jumladan, xorijlik mualliflardan Briscoe S, Jones W, Repu S. kabilarning ilmiy-tadqiqot ishlari qishloq xo'jaligida suv resurslaridan foydalanishni samarali boshqarish masalalariga bag'ishlangan⁴.

MDH mamlakatlari olimlaridan suv resursidan foydalanishni boshqarish hamda unga tizimli yondashish muammolari V.Duxovniy, S.Bezdnina, V.Sokolov, M.Pinxsasov, N.Atalseva, A.Avakyan, G.Gulyak, V.Krasnoshekov, A.Liskinkov, Usachev I.G., Pavsov A.G., Semeniki V.A., Goncharenko I.Yu., Matyunina O.Yu.,

⁴ A Briscoe S. Global Water Partnership // I)K.Rosengrant and Binswanger.- Dublin Statement- 2000.-p.25-26; Jones W.l. Global Water Partnership // Ж-K-Rosengrant and Binswanger.- Dublin Statement.- 2000 - p. 25-26; Perry C. Water at any price? Issues and options in charging for irrigation water // Irrigation and drainage. 2001 № 3. p. 24-27. Духовный В.А. Вода и глобализация: пример Центральной Азии. - Т.: 2006. -27 с.

Gazimagamedova F.R., Demyanenko S.I., Dombrovskiy S.F., O.Moroz, Maestra S.M. kabi olimlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan⁵.

Mamlakatimizda suv resurslaridan foydalanish masalalari iqtisodchi-olimlar U.P.Umurzokov, Z.S.Abdullaev, S.Ch.Djalalov, A.S.Sultonov, B.B. Berkinov, M.N.Maxmudov, I.Axmedov, T.Rizaev, A.M.Qodirov, R.X.Tashmatov, B.Xasanov, L.I.Abduraximov, Z.D.Xudoyberganov, S.Axmedov, L.Amirov va boshqalarning ilmiy ishlari o‘rganilgan⁶.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertasiya tadqiqoti Qarshi davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi intelektual hamkorlikni shakllantirish va qo‘llash» (2019-2021) mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O‘zbekistonda suv resurslaridan foydalanishni boshqarish samaradorligini oshirishning tashkiliy jihatlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

⁵ Духовный В.А., Соколов В.И. Стратегия управления водными ресурсами Средней Азии // Водный ресурсы проблемы Арала окружающая среда: тез.докл. науч.конф. - Т.: 2000. С. 122-124.; Духовный В.А., Пинхасов М.А. Суп хужалиги хизматлари учун хак, тулаш ва уни Узбекистон шароитида жорий этиш буйича тавсиялар. - Т.: 2004. - 46 б.; Атальцева Н. Проблемы водных ресурсов в современных изменяющихся условиях // Экологический вестник. - Москва, 2006, - № 4, апрель - С. 37.; Авакян А.Б. Концепция использования водных объектов // Мелиорация и водное хозяйство. - Москва, 1994 - № 5 - С. 8-9.; Гуляк Г.Г. Водное хозяйство Франции // Мелиорация и водное хозяйство. - Москва, 2003. - №5 - С. 30-32.; Бездетна С. Я Проблемы водного хозяйства в агропромышленном комплексе России // Мелиорация и водное хозяйство. Москва, 2003 - №3 - С. 14-17.; Краснощеков В.Н. Методология определения платы за использование водных ресурсов в сельском хозяйстве // Мелиорация и водное хозяйства. - Москва, ,2003. - №3 - С. 26-27., Лискинов А.Т., Степанов А.Б. Экономические метода регулирования качества экосистемы при водохозяйственном объекте // Мелиорация и водное хозяйства. - Москва, 2003. - №1 - С. 41-42; Ушачев И.А. Папцов А.Г., Долгушкин Н.К. ва б. Развитие и повышение конкурентоспособности сельского хозяйства России в условиях углубления интеграции в ЕАЭС: - М.: «Росинформагротех», 2018. – 348 с.; Семеникин В.А. и др. Как можно повысить эффективность аграрно-экономической науки; Гончаренко И.Ю. Формирование эффективной модели управления инновационной деятельностью в аграрном секторе экономики России. Автореферат –диссер. к.э.н. – М.: Государственный университет управления. 2016; Матюнина О.Ю. Стратегия развития аграрного сектора АПК самодостаточного региона. Дис.к.э.н. Автореферат. Воронеж, Филиал Всероссийского заочного финансово – экономического института в г.Липецке, 2006; Демьяненко С.И. К вопросу о стратегии развития аграрного сектора экономики Українв. – Київ, Журнал “Економіка АПК”, 2014. № 1; Домбровский С.Ф., Тараненко Л.С. Державне управління сільським господарством Україні (правові аспекти). – Хмельницький: Хмельницьк. Ун-т упр. та права. 2010. – 397; Мороз О. Теоретико – методологічні аспекти сучасної парадигми регулювання аграрного ринку // Вісник ВПІ. 2004. - № 5. – С.16-22; Черенко Г. Агрохолдинги як нові організаційні форми крупнотоварного господарювання в агробізнесі України // Аграрна економіка. – 2012. - № 1 – 2. – С.34 – 40.

⁶ Умурзков У.П., Абдурахимов И.Л. Сув хужалиги менежменти. 1-жилд. - Т.: Иктисолиёт ва молия,2008. - 606 б.; Султонов А.С., Хошимов У., Юсупов М. Сувдан фойдаланувчилар уюшмалари иктисоли ва уни ташкил этиш. - Т.: 2008. - 140 б.; Джалолов С.Ч. Орошаюое земледелие в условиях дефицита водных ресурсов. - Т.: 2000. - 199 с.; (-ултонов А.С. Хошимов У., Юсупов М. Сувдан фойдаланувчилар щтисоди ва уни ташкил этиш. - Т.: 2008. 140 б.; Беркинов Б.Б., Тошматов Р.Х. Узбекистонда фермер хужаликларига хизмат курсатувчи иифратузилмаларни ривожлантириш йуналишлари: - Т.: ТДИУ, 2007. - 44 б.; Махмудов Н.М., Аскарова М.Т., Макроиктисодий таҳдил ва прогнозлашириш // Дарслик. - Т.: 2014. Ахмедов И. Сувдан фойдаланувчилар уюшмалари учун маълумотнома. - Т.: 2005. - 104 б.; Ризаев Т. Сув ресурсларини боишариш // Узбекистон қишлоқ, хўжалиги. - Тошкент, 2007. - №1 -15. Б.; Худойберганов З.Д. Сув ресурсларидан самарали фойдаланишнинг ташкилий-иктисодий асослари. - Т.: 2009.; Хасанов Б. Сув хужалиги тизимини такомиллашириш ва унинг самарадорлигини оширишнинг ташкилийик,тисодий механизм: иктисоли фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация ниторсферати. - Тошкент, 2005 -3 0 б.; Қодиров А.М., Тошматов Р.Х. ва б. Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришини рационал жойлашириш учун табиий ресурс салоҳиятини аниқлаш бўйича илмий – услуги ёндашув. Монография. - Т.: LECCON PRESS, 2017, - 229 б.

Tadqiqotning vazifalari:

suv resurslaridan foydalanishni boshqarishning nazariy asoslarini tadqiq etish;

O‘zbekistonda suv resurslaridan foydalanishni boshqarish genezisini o‘rganish;

suv resurslarini iqtisodiy baholashning metodologik jihatlarini tadqiq etish;

O‘zbekistonda suv resurslaridan samarali foydalanishni tartibga solish mexanizmlarini institutsional tahlil qilish;

Qashqadaryo viloyatida suv resurslaridan foydalanish samaradorligini iqtisodiy tahlil qilish;

mamlakatimiz hududlarida suv resurslaridan samarali foydalanishga ta’sir etuvchi omillarni ekonometrik tahlil qilish;

hududlarda suvdan foydalanishni boshqarishning yangi paradigmalarini aniqlash;

suv resurslaridan foydalanishni boshqarish samaradorligini oshirish yo‘nalishlarini asoslash;

Qashqadaryo viloyati tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligining 2027 yilgacha prognoz ssenariylarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Qashdaqaryo viloyatidagi suv resurslarini boshqarish tizimi olingan.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib, mamlakatimiz hududlarida suv resurslaridan samarali foydalanishni tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar davomida tizimli tahlil, sintez, ekonometrik tahlil, statistik guruhlash va taqqoslama tahlil, ekspert baholash va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra suv resurslaridan foydalanishni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi suv resurslarini barqaror boshqarish va rivojlantirishga qaratilgan, suv resurslaridan samarali, adolatli va ekologik barqaror tarzda foydalanishni ta’minlash uchun turli sohalar va manfaatdor tomonlarning hamkorligini talab qiluvchi integratsiyalangan suv resurslarini boshqarish konsepsiysi asosida takomillashtirilgan;

suv resurslarini baholash usullarining qiyosiy tahliliga ko‘ra manbadagi va iste’mochidagi suvni hisoblash, suvning sifat tarkibini baholash, suvdan foydalanishda yo‘qotishlarni inobatga olish kabi ko‘rsatkichlar bo‘yicha xarajatlar usuli ($XU = 3,5$), daromadlar usuli ($DU = 3$), renta usuli ($RU = 1,5$), marjinal xarajatlar usuli ($MXU = 4,5$) mezonlari qiymati aniqlangan;

Qashqadaryo viloyatida ikki martadan ko‘p marta hosil olinadigan yer maydonlarida yetishtiriladigan qo‘srimcha mahsulotlar hajmining 2027 yilgacha qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan;

Qashqadaryo viloyati qishloq xo‘jaligi va sanoat tarmoqlarida suvdan foydalanishning 2027 yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

suv resurslaridan foydalanish samaradorligini boshqarishni baholash uslubi takomillashtirilgan;

hududlarda suv resurslaridan samarali foydalanish samaradorligini oshirish, qishloq xo‘jaligida suv tejovchi innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda sug‘oriladigan yerkarning meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha takliflar asoslangan;

suv resurslaridan foydalanish samaradorligiga ta’sir etuvchi ekzogen omillar aniqlangan;

qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida suv iste’moli dinamikasi ko‘rsatkichlari bilan iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar yo‘nalishini aniqlash maqsadida miqdoriy «sabab-oqibatni» tahlil qilingan;

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligida suv iste’moli samaradorligini tavsiflaydigan ko‘rsatkichlar tizimli tahlil qilinib tegishli ilmiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi yetakchi iqtisodchi olimlarning suv resurslaridan samarali foydalanishni iqtisodiy boshqarish bo‘yicha ilmiy-nazariy fikrlarini qiyoziy va tanqidiy tahlil qilish, ilg‘or xorij tajribasini o‘rganish hamda umumlashtirish, suvdan foydalanish samaradorligini baholashdagi shkalalashtirishning ekspert natijalari hamda milliy va xalqaro nufuzli tashkilotlarning rasmiy manbalariga asoslanganligi, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi va uning tarkibidagi korxonalar statistik ma’lumotlariga asoslanib jarayonni tahlil qilish orqali ilmiy-nazariy xulosalar qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olingan natijalarning nazariy jihatdan asoslanganligi, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarning mamlakat suv resurslaridan samarali foydalanishni iqtisodiy boshqarish metodologiyasini takomillashtirish masalalariga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati dissertasiya ishida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning suv resurslaridan samarali foydalanishni boshqarish metodologiyasini takomillashtirish yo‘llarini, sohani rivojlantirishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda, oliv o‘quv yurtlarida sohaga oid fanlar xususan, «Strategik menejment», «Menejment», «Suv xo‘jaligi menejmenti» kabi fanlardan darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarni ishlab chiqishda hamda boshqa amaliy materiallarni tayyorlashda ilmiy manbaa sifatida keng foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Suv resurslaridan foydalanishni boshqarish samaradorligini oshirishning tashkiliy jihatlari bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra suv resurslaridan foydalanishni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi suv resurslarini barqaror boshqarish va rivojlantirishga qaratilgan, suv resurslaridan samarali, adolatli va ekologik barqaror tarzda foydalanishni ta’minalash uchun turli sohalar va manfaatdor tomonlarning hamkorligini talab qiluvchi integratsiyalangan suv resurslarini boshqarish konsepsiysi asosida takomillashtirilgan taklifi, O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi faoliyatida suv resurslaridan samarali foydalanishning uslubiy asoslari kengaytirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi

vazirligining 2024 yil 11 dekabrdagi 05/27-4767-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyatga joriy etilishi natijasida Qashqadaryo viloyatida bir gektar maydonga sarflangan suv miqdorinig hajmi 2023-yilda 2022-yilga nisbatan suvdan foydalanish hajmini 4 foiz kamaytirishga erishilgan;

suv resurslarini baholash usullarining qiyosiy tahliliga ko'ra manbadagi va iste'mochidagi suvni hisoblash, suvning sifat tarkibini baholash, suvdan foydalanishda yo'qotishlarni inobatga olish kabi ko'rsatkichlar bo'yicha xarajatlar usuli ($XU = 3,5$), daromadlar usuli ($DU = 3$), renta usuli ($RU = 1,5$), marjinal xarajatlar usuli ($MXU = 4,5$) mezonlari qiymati aniqlangan taklifi, O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining 2024 yil 11 dekabrdagi 05/27-4767-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyatga joriy etilishi natijasida Qashqadaryo viloyati hududlarida suvdan foydalanish holati baholanib, tumanlarda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini 17 foizga oshirish va qishloq xo'jaligi sohasida tomchilab sug'orish ishlarini tashkil etishda va boshqarishda tizimli chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini yaratilgan;

Qashqadaryo viloyatida ikki martadan ko'p marta hosil olinadigan yer maydonlarida yetishtiriladigan qo'shimcha mahsulotlar hajmining 2027 yilgacha qadar prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining 2024 yil 11 dekabrdagi 05/27-4767-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyatga joriy etilishi natijasida Qashqadaryo viloyatida ikki martadan ko'p marta hosil olinadigan yer maydonlarida yetishtiriladigan qo'shimcha mahsulotlar hajmining uzoq muddatli istiqboldagi asosiy ko'rsatkich va parametrlarini o'zaro muvofiqlashtirish imkonini yaratilgan;

Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlarida suvdan foydalanishning 2027 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining 2024 yil 11 dekabrdagi 05/27-4767-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyatga joriy etilishi natijasida Qashqadaryo viloyatida suv resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha 2027 yilgacha bo'lgan strategiyasini ishlab chiqishda asosiy ko'rsatkich va parametrlarni o'zaro muvofiqlashtirish imkonini yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari, 4 ta, shu jumladan 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 7 ta ilmiy ish, shu jumladan, milliy OAK e'tirof etgan jurnallarda 4 ta va nufuzli xorijiy jurnallarda 3 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertasiyaning hajmi 151 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyatga joriy etilishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi va ishning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Suv resurslaridan foydalanishni boshqarish samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida suv resurslarinidan foydalanishni boshqarishning nazariy asoslari o‘rganilgan, O‘zbekistonda suv resurslaridan foydalanishni boshqarish genezisi tadqiq etilgan, suv resurslarini iqtisodiy baholashning metodologik jihatlari yoritilgan.

Suv iqtisodiyoti sohasidagi faol tadqiqotlar atigi 50 yil oldin boshlangan bo‘lib, aksariyat ilmiy ishlar suv manbaalaridan foydalanishning huquqiy masalalariga bag‘ishlangan. Biroq bu ishlarda suvdan foydalanuvchilarning farqlanishi hisobga olinmagan. Bundan tashqari, suvdan ogilona foydalanishni rag‘batlantirish nuqtai nazaridan eng muhim masala bo‘lib, yuqorida keltirilgan ilmiy ishlarda suvdan foydalanishning iqtisodiy masalalari chuqur o‘rganilmagan.

Suv resurslariga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy ishlar geografiya, gidrologiya, ekologiya va iqtisodiyotni o‘z ichiga olgan bir qancha fanlar chorrahasida joylashgan. Ilmiy nashrlarning katta qismi suv resurslari va ulardan foydalanishni davlatlararo va mintaqalararo taqqoslash masalalari bilan bog‘liq.

Muallifning fikricha, suv resurslaridan foydalanish va samarali boshqaruvtizimini shakllantirish muammolari, infratuzilmaning eskirishi va kommunal tarmoqlarning yomonlashuvi tufayli suvgaga bo‘lgan talab va taklif nomutanosibligining kuchayishiga, suv resurslarining ifloslanishi va boshqalarga olib keladigan urbanizasiyaning yuqori sur’atlari barcha darajalarda - xalqaro, milliy darajada mintaqaviy, shahar, barqaror shahar rivojlanishining uzoq muddatli istiqbollarini hisobga olgan holda hal qilinishi kerak.

Markaziy Osiyo mintaqasidagi har bir mamlakatning suvdan foydalanishi avtonom va mustaqil emas. U o‘zaro hamkorlikning barcha tomonlarini qamrab oladi va Orol dengizi havzasining yagona suv tizimidan foydalanadigan xalqlar va mamlakatlar o‘rtasidagi diplomatik, iqtisodiy va yaxshi qo‘schnichilik munosabatlariga asoslanadi. To‘rt mamlakat to‘liq havzaning chegaralarida joylashgan – Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston, O‘zbekiston Respublikasi, bundan tashqari, Qozog‘iston Respublikasining Janubiy qismi va Afg‘oniston va Eron Islom Respublikasi hududining Shimoliy qismlari qisman kiritilgan (1-jadval).

Manbaalarga ko‘ra, hududga kiritilgan mamlakatlar iqtisodiyoti ko‘p jihatdan Orol dengizi daryosi havzasida suv resurslarining mavjudligi va shunga mos ravishda Daryo oqimida rivojlanib kelayotgan va bu yerda qadim zamonlardan beri olib borilayotgan sug‘oriladigan dehqonchilikning holati bilan belgilanadi.

1-jadval

Orol dengizi havzasining hududiy xususiyatlari⁷

Mamlakatlar	Maydoni, ming km ²	Foizda
Qirg'iziston	199,9	7,4
Tojikiston	142,5	5,3
Turkmaniston	491,2	18,2
O'zbekiston	449,3	16,7
Qozog'iston	1103,3	41,0
Markaziy Osiyo mamlakatlari ichida jami	2386,2	88,6
Afg'oniston	243,0	9,0
Eron Islom Respublikasi	65,0	2,4
Orol dengizi havzasi uchun jami	2694,2	100

Jadvalda Orol dengizi havzasining hududiy xususiyatlari bo'yicha mamlakatlar va ularning yer maydonlari to'g'risidagi ko'rsatkichlar tahlil qilingan. Bunda, Qirg'iziston 199,9 ming km², Tojikiston 142,5 ming km², Turkmaniston 491,2 ming km², Qozog'iston 1103,3 km² va O'zbekiston Respublikasi 449,3 ming km² ni tashkil qilgan.

Havzaning suv resurslari Amudaryo, Sirdaryo daryolari va bir nechta drenajsiz daryolar oqimidan iborat bo'lib, ularning har biri mustaqil avtonom sug'oriladigan maydonni tashkil qiladi. Umuman olganda, O'rta Osiyo mintaqasining suv resurslari o'rtacha uzoq muddatli kuzatuvlarga ko'ra 126,9 km³ ni tashkil qiladi (2-jadval).

2-jadval

Markaziy Osiyo mintaqasining yer usti suv resurslari⁸


Daryolar	O'rtacha yillik oqim, km ³	Foizda
Sirdaryo xavzasini shundan Sirdaryo daryosi	37,2 33,8	29,3
Amudaryo xavzasini shundan Amudaryo daryosi	79,5 68,1	62,7
Turg'in suvlar xavzasini	10,2	8,0
Orol denizi ko'rfazi (basseyni) bo'yicha jami	126,9	100

Yuqorida keltirilgan jadvalda Markaziy Osiyo mintaqasining er usti suv resurslari bo'yicha daryolar, ularning yillik oqimi ko'rsatkichlari va foiz miqdorlari ko'rsatilgan. Bunda, Sirdaryo xavzasida o'rtacha 37,2 km³ ni tashkil qilgan bo'lsa, shundan Sirdaryo daryosi 33,8 km³ ni, ya'ni 29,3 foizni tashkil qilgan. Amudaryo xavzasini 79,5 km³ ni tashkil qilgan bo'lsa, shundan Amudaryo daryosi bo'yicha 68,1 km³ ni, ya'ni 62,7 foizni tashkil qilgan. Orol dengizi havzasiga kiritilgan Markaziy Osiyo mamlakatlari, umuman olganda, Yevropa qit'asi, yaqin va uzoq Sharq mamlakatlari o'rtasida bog'lovchi hududiy bo'g'in bo'lib, strategik jihatdan qulay fazoviy mavqega ega. Aynan shu mintaqqa orqali bir vaqtlar Buyuk Ipak yo'li o'tgan.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Mintaqaning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bu aholining barqaror o‘sishi bo‘lib, ularning soni har 30-35 yilda ikki baravar ko‘payadi. 75 yil oldin ushbu mintaqaning sobiq Ittifoq respublikalarida 12,4 million kishi yashagan va 2023-yil holatiga ko‘ra, O‘zbekistonni o‘zida 36 milliondan ortiq aholi mavjud (1-rasm).



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida 2009-2023-yillarda jami aholi soni⁹

Doimiy yer usti oqimi va suv resurslari bilan Markaziy Osiyo mintaqasida yiliga 1 kishiga to‘g‘ri keladigan suv miqdori aholi o‘sishiga mutanosib ravishda kamayadi. Agar 1940-yilda viloyatda aholi jon boshiga 10,2 ming m³ suv to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2004-yilda -4 baravar kam -2,6 ming m³, 2010-2020-yillarda -4,4 baravar kam -2,3 ming m³. Hozirgi vaqtida Markaziy Osiyo mamlakatlarida ekinlarni yetishtirish texnologiyalari va sug‘orish usullari unchalik samarali emas, sug‘orish tizimlarining past samaradorligi va suvni filtrlash va bug‘lashda katta yo‘qotishlar bilan birga keladi, bu yesa pirovardida aholi jon boshiga 0,5 tonnaga yaqin don ishlab chiqarish imkonini beradi. Ma’lum hajmdagi suv iste’moli, boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bundan mustasno.

3-jadval

O‘zbekistonda xavfsiz ichimlik suvidan foydalanuvchilar ulushi (foizda)¹⁰

Yillar	2010	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
O‘zbekiston	92,9	98,2	98	98,2	97,8	98,6	98,7	98,5	99,2	99,8

Yuqorida jadvalda O‘zbekistonda xavfsiz ichimlik suvidan foydalanuvchilar ulushi 2010-yilda 92,9 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2023-yilda 99,8 foizni tashkil qilmoqda. Ayrim ekspertlarning fikricha, joriy asrda Eron Islom Respublikasi va Afg‘onistonda sug‘orishning rivojlanishi hisobiga yuqorida qayd etilgan beshta havzali mamlakat hududida suv resurslari hajmi kamayadi, bu esa aholi o‘sish sur’atlarini hisobga olgan holda, suv muammosini yanada kuchaytirishi mumkin. Orol dengizi havzasi ushbu mintaqaga mamlakatlari iqtisodiyoti va barqarorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, suv resurslari cheklangan hududlarda suvdan oqilona foydalanish va 1 m³ suv uchun oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

chiqarishga asoslangan iqtisodiyotni nafaqat kattalashib borayotgan hajmda, balki uning nisbatan yuqori bozor qiymatini hisobga olgan holda rivojlantirish zarur.

Tadqiqot natijalariga ko`ra, amaliyotda suv resurslaridan foydalanishni ijara berishda mavjud chuchuk suv hajmining mavsumiy va yillik o`zgarishi, manbadan suvni to`kish paytida yo`qotishlar hajmi, qabul qilish va suvni qaytarish sifati kabi muhim parametrlar hisobga olinmaydi.

Marjinal xarajatlar asosida suv resurslarini baholash usulini beba ho afzalliklaridan biri talab va taklifning makroiqtisodiy modeli bilan muvofiqligi hisoblanadi¹¹.


Marjinal xarajatlari-bu iste'mol qilingan oxirgi kubometr suvni qazib olishni tashkil yetish xarajatlari. Aytaylik, iste'molchilarda (fermer xo'jaliklarda) r_0 narxida qondirilgan q_0 hajmida suvga talab mavjud. Iste'molchida tabiiy va iqtisodiy faoliyatning kengayishi suvga bo'lgan talab hajmini oshiradi:

$$q^* = q_0 + \Delta q,$$

Suv iste'molining talab va marjinal xarajatlarining nisbati mos ravishda:

$$p^* = p + \Delta p = p + MC(q_0 + \Delta q),$$

biroq, qachon Δq va $\Delta p \rightarrow 0$, funksiyani farqlash mumkin.



2 -rasm. Suv iste'molining talab va marjinal xarajatlarining nisbati modeli¹²

$$f(x_0) = \frac{dMC(x_0)}{dx}$$

bu yerda x_0 hajmdagi suv narxi $f(x_0)$, $MS(x_0)$ – suv olishning marjinal xarajatlarining funksiyasidir.

Ushbu usul shartli ravishda qimmat usullarni nazarda tutadi, shuning uchun suv resurslarini baholash manbada amalga oshiriladi, u atrof-muhitni boshqarishning barcha subyektlari uchun universaldir, bu uning shubhasiz afzalligi. Ikkinchidan, suv monopol resurs bo'lib, tabiiy monopoliyalar tomonidan taqsimlanadi, shunga ko'ra monopol bozorga xos bo'lgan resursning bozor narxlari mexanizmlaridan foydalaniladi. Yuqoridagi usul ham universaldir, chunki suv manbada baholanadi, uning narxini oshirishi yoki kamaytirishi mumkin bo'lgan sifat tarkibini qo'shimcha ravishda aniqlash mumkin. Ushbu usulning muhim kamchiliklari shundaki, u suvdan foydalanish suv iste'moli samaradorligini

¹¹ Упушев Е.М. Экология, природопользование, экономика. – Алматы, 2002. – 328 с.

¹² Упушев Е.М. Экология, природопользование, экономика. – Алматы, 2002. – 328 с.

baholamaydi, lekin uning narxlash (baholash) sxemasi oxirgi foydalanuvchini suv resurslaridan yanada samarali foydalanishga undaydi (4-jadval).

Aytilganlarni umumlashtirib, xulosa qilishimiz mumkinki, tadqiqot maqsadlariga qarab, suv resurslarini baholashning sanab o'tilgan usullaridan har qandayidan foydalanish mumkin. Manbada suvdan oqilona foydalanish suv sarfini oshirish uchun xarajatlarni yopish usuli mos keladi.

4-jadval

Suv resurslarini baholash usullarining qiyosiy tahlili¹³

Ko'rsatkichlar	Xarajatlar usuli	Daromadlar usuli	Renta usuli	Marjinal xarajatlar usuli
Manbaadagi suvni hisoblash	+			+
Iste'mochidagi suvni hisoblash	/+	+	+	
Suvning sifat tarkibini baholash	+		/+	/+
Tartibga solishning bozor mexanizmi		+		+
Suvdan foydalanishda yo'qotishlarni inobatga olish	+			+
Suv iste'molchi subyektlaridan qat'iy nazar hisoblash				+
Jami (ballar)	3,5	3	1,5	4,5

Yuqorida keltirilgan jadvalda suv resurslarini baholash usullarining qiyosiy tahlili keltirilgan. Bunda ko'ra, manbaadagi suvni hisoblash, iste'mochidagi suvni hisoblash, suvning sifat tarkibini baholash, tartibga solishning bozor mexanizmi, suvdan foydalanishda yo'qotishlarni inobatga olish va suv iste'molchi subyektlaridan qat'iy nazar hisoblash bo'yicha mezon ko'rsatkichlari ko'rsatib berilgan.

Suvdan oqilona foydalanish suv iste'moli nuqtayi nazaridan eng kam samarali bo'lган suv uchun to'lovlarni aniqlashda ijaraga asoslangan usullardan foydalanish hozirgi vaqtda, ayniqsa, O'zbekistonda suv resurslarini samarasiz boshqarilishini ko'rsatadi.

Suv resurslarini umumlashtirilgan baholash, iqtisodiy qiyinchiliklarga qo'shimcha ravishda, bizning holatlarimizda bir qator qo'shimcha geografik va gidrologik parametrlar bilan murakkablashadi: chuchuk suv tanqisligi; Daryo oqimi hajmining sezilarli mavsumiy va yillik tebranishlari; tabiiy muhit va suvdan foydalanuvchilarning yog'ingarchilik darajasi va Daryo oqimi hajmiga sezgirligi; katta suv yo'qotishlari, zaif sug'orish va meliorativ tizim; suv resurslarining past sifatli tarkibi; O'zbekiston hududida okean resurslariga kirmasdan faqat ichki suv omborlarining mavjudligidir.

Dissertatsiyaning «O'zbekistonda suv resurslaridan foydalanishni boshqarish samaradorligi tahlili» deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekistonda suv resurslaridan samarali foydalanishni tartibga solish mexanizmlari keltirilgan, Qashqadaryo viloyatida suv resurslaridan foydalanish samaradorligi tahlili amalga

¹³ Muallif ishlanmasi.

oshirilgan, mamlakatimiz hududlarida suv resurslaridan samarali foydalanishning ekonometrik tahlil qilinib ta'sir etuvchi omillar aniqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, shuningdek, suvdan foydalanishni tartibga solish bo'yicha maxsus vakolatli davlat organlari va suvni muhofaza qilish davlat organlari va boshqa Davlat organlari tomonidan O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi. Suvlardan foydalanish va ularni muhofaza qilishni tartibga solish bo'yicha maxsus vakolatli davlat organlari tegishli ravishda O'zbekiston suv xo'jaligi vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, shuningdek, ularning mahalliy organlari hisoblanadi.

- O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "SUV VA SUVDAN FOYDALANISH TO'G'RISIDAGI" QONUNI, 1993-yil 6-may, 837-XII-son
- Uy-joy fondida va ijtimoiy-madaniy maqsadlardagi obyektlarda suv va gazni hisobga olish asboblarini o'rnatish va ulardan foydalanish haqidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 26.05.1995-yildagi 185-tonli
- O'zbekiston Respublikasining Davlat suv kadastrini ishlab chiqish va yuritish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 07.01.1998-yildagi 11-tonli
- Suv resurslarini to'plash, ekin maydonlarini sug'orish uchun nasos stantsiyalarini elektr bilan ta'minlash va iste'mol qilinadigan elektr energiyasi uchun hisob-kitob qilish tartibini tasdiqlash to'g'risida
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 31.08.1999-yildagi 408-tonli

1-bosqich
(1991-2000 y)

- Chuchuk yer osti suvlarini hosil bo'ladigan zonalarga alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar maqomini berish to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 16.01.2002-yildagi 23-tonli
- Chuchuk yer osti suvlarini chiqadigan zonalarni belgilash to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 12.01.2004-yildagi 14-tonli
- Qashqadaryo viloyatidagi Qashqadaryo daryosining suvni muhofaza qilish zonasini va qirg'oqbo'y polosasini belgilash to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 06.03.2002-yildagi 80-tonli
- To'polang suv ombori va GESini ishgaga tushirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.03.2006-yildagi PQ-311-tonli
- Andijon, Namangan, Sirdaryo, Toshkent va Farg'ona viloyatlarida Sirdaryoning suvni muhofaza qilish zonasini va sohilbo'y mintaqasini belgilash to'g'risida
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 09.02.2007-yildagi 29-tonli

2-bosqich
(2000-2017 y)

- O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING "SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA KECHIKTIRIB BO'LMAJDIGAN CHORA-TADBIRLAR TO'G'RISIDA" GI QARORI, 01.04.2023-yildagi PQ-107-tonli
- Suv xo'jaligida zamонави boshqaruв tizimini joriy qilish va rivojlantirishning ustuvor yo'naliшlarini belgilash to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.05.2024-yildagi PF-74-tonli
- "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 09.02.2024-yildagi 79-tonli
- Quyi bo'g'inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 05.01.2024-yildagi PQ-5-tonli
- Ichimlik suv ta'minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.10.2023-yildagi PQ-343-tonli
- Ma'muriy islohotlar doirasida suv xo'jaligi sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 20.06.2023-yildagi PF-101-tonli

3-bosqich
(2017-v.h)


3-rasm. O'zbekistonda suv resurslaridan samarali foydalanishni tartibga solish bosqichlari¹⁴

¹⁴ O'zbekiston Respublikasida suvdan foydalanish bo'yicha me'yoriy – huquqiy hujjatlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Muallifning fikricha, mamlakatda suvni boshqarish va suv resurslaridan foydalanishni tartibga solish tizimini yanada modernizasiya qilish lozim. Tadqiq etilgan Qashqadaryo suv xo‘jaligi tuzilmasi o‘zining zamonaviy ko‘rinishida mavjud irrigatsiya va melioratsiya tizimlarining yetarli darajada yuqori ishonchliligi va samarali ishlashini ta’minlay olmayapti degan xulosaga kelingan. Chunki Qashqadaryo suv xo‘jaligi boshqarmasi suvdan foydalanishning rivojlangan bozor tizimiga ega bo‘lgan bir qator mamlakatlarda umumiy qabul qilingan va samaradorligini isbotlagan suv resurslarini boshqarishning integratsiyalashgan tizimi tomonidan bajariladigan bozor suvidan foydalanish talablariga javob bermaydi, bunda «water management» tizimi joriy etilmagan.

Muallifning fikriga ko‘ra, Qashqadaryo viloyati hamda boshqa chekka hududlarda «Suv strategiyasi»ni ishlab chiqish lozim bo‘lib, suv resurslari vazirligining ayrim funksiyalari viloyat, shahar va tuman hokimliklarga o‘tkazilib, hududlarda suv resurslaridan samarali foydalanishni tashkil etishni kompleks boshqarish vazifalari yuklatilishi lozim. Bunda, suvni boshqarish tuzilmasini takomillashtirish nuqtayi nazaridan ma’muriy va iqtisodiy prinsipga muqobil sifatida suv uzatish tizimini boshqarish ham maqsadga muvofiqdir.

Taqdim etilgan ma’lumotlar hududlarda bir gektar maydonga sarflanayotgan suv miqdorining hajmi to‘g‘risida ma’lumotlariga ko‘ra 2006-yildan 2023-yilgacha mamlakat bo‘yicha o‘rtacha suv iste’moli yillar davomida biroz o‘zgaruvchan tendensiyalarga ega bo‘lgan. Qashqadaryo viloyatida eng yuqori iste’mol darjasini 2005-yilda 13,7 ming m³/ga, eng pasti esa 2022-yilda 8,8 ming m³/ga bo‘lgan. Mamlakat bo‘yicha esa eng yuqori ko‘rsatkich 2005-yilda 183,7 ming m³/ga, hamda eng past daraja 135,7 ming m³/ga 2022-yilda teng bo‘lgan.




4-rasm. O‘zbekiston hamda Qashqadaryo viloyatida bir gektar maydonga sarflanayotgan suv miqdorining hajmi to‘g‘risida ma’lumot¹⁵

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Biroq umumiy tendensiyaga e'tibor bersak, Qashqadaryo viloyatida 2005-yildan beri 2023-yilgacha suvdan foydalanish darajasi pasayib bormoqda (4-rasm).

Qashqadaryo viloyatida suv iste'molining pasayish tendensiyasi kuzatildi, ayniqsa, 2016-yildan keyin, 2023-yilda eng past darajaga tushgan. Ushbu holatlar barcha viloyatlarda suvdan foydalanish ko'rsatkichlarining notekis taqsimlanishi bilan bog'liq bo'lib, mazkur holatlar mintaqaviy xususiyatlarga xosdir.



5-rasm. Hududlar bo'yicha tomchilatib sug'orish tizimining joriy etilishi dinamikasi, (gektar)¹⁶

Olib borilgan tadqiqotlar natilariga ko'ra, respublikamizning boshqa hududlarda, jumladan, Andijon, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Toshkent, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida tomchilatib sug'orish tizimini joriy etish bo'yicha yillar davomida turli darajada o'sish tendensiyalari kuzatilgan. Eng muhim tendensiya Qashqadaryo viloyatida kuzatilgan bo'lib, 2023-yilda tomchilatib sug'orish uchun eng ko'p maydonga ega bo'lgan viloyat sifatida qayd etildi.

2019-yildan 2023-yilgacha mamlakatimiz hududlarida tomchilatib sug'orish tizimlarining sezilarli darajada kengaytirilishi qishloq xo'jaligi amaliyotini modernizasiya qilish uchun milliy tashabbus yoki sarmoyani taklif qilishdagi nomutanosibliklar sabab yuzaga kelgan.

Qashqadaryo viloyati hududlarida suv resurslaridan foydalanishda suv tejamkorligi oshganligini yuqoridaq jadvalda ko'rishimiz mumkin. Mamlakatimizda zamonaviy qishloq xo'jaligi davridagi qishloq xo'jaligi tizimi sug'oriladigan yer maydonlarini qishloq xo'jaligi aylanmasiga to'liq jalb qilish va ulardan samarali foydalanish bilan tavsiflanadi.

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

5-jadval

**Qashqadaryo viloyati hududlarida suv resurslaridan foydalanish
to‘g‘risida ma’lumot¹⁷**

t/r	Tumanlar	Suvdan foydalanish xajmi, mln.m ³		Farqi
		2022 yil	2023 yil	
1	G‘uzor	180,37	171,02	-9,35
2	Dehqonobod	10,31	7,59	-2,72
3	Qarshi	414,66	410,19	-4,47
4	Koson	592,26	567,53	-24,73
5	Qamashi	178,91	171,62	-7,29
6	Kitob	81,35	80,04	-1,31
7	Mirishkor	556,38	550,61	-5,77
8	Muborak	265,01	260,73	-4,28
9	Nishon	482,84	476,60	-6,24
10	Kasbi	451,16	445,29	-5,87
11	Chiroqchi	140,48	138,36	-2,12
12	Ko‘kdala	90,20	87,11	-3,09
13	Shaxrisabz	136,33	130,04	-6,29
14	Yakkabog‘	153,76	151,44	-2,32
Jami		3734,02	3648,17	-85,85
Manbadan		4228,70	4109,50	-119,20


Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2020-2023-yillarda Qashqadaryo viloyatida paxta maydonlari kamayib borishi va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini ekish maydonlari kengayish tenlensiysi ega bo‘lgan, jumladan, 2023-yilda 131744 hektar maydonga boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini ekish uchun ajratilgan bo‘lib, 2022-yilga nisbatan qariyb ikki barobarga oshgan.

So‘nggi yillarda Qashqadaryo viloyatining paxta va g‘alla yetishtirishdagi o‘rtacha hosildorligi 2019-yilda pasaygan, biroq 2022-2023-yillarda mutanosib ravishda 31.4 va 35.5 sentener/ga teng bo‘lib, oldingi yillarga nisbatan birmuncha oshgan. 2017-2023-yillarda Qashqadaryo viloyatida 2 martadan ko‘p marta hosil olinadigan yer maydonlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar quyidagi diagrammada keltirilgan.

2017-2023-yillarda Qashqadaryo viloyatida 2 martadan ko‘p marta hosil olinadigan yer maydonlari oshib borish tendensiyasiga ega bo‘lib, sug‘orish tarmog‘ining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Qashqadaryo viloyatida 2 martadan ko‘p marta hosil olinadigan yer maydonlarining 2027-yilgacha rivojlanish prognozlari (ga) yuqoridagi 4-rasmda keltirilgan.

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.



4-rasm. Qashqadaryo viloyatida 2 martadan ko‘p marta hosil olinadigan yer maydonlarining 2027-yilgacha rivojlanish prognozlari (ga)¹⁸

Tadqiq etilayotgan Qashqadaryo viloyatida 2 martadan ko‘p marta hosil olinadigan yer maydonlarida yetishtiriladigan qo‘sishimcha mahsulotlarning 2027-yilgacha rivojlanish prognozlari 5-rasmda keltirilgan.

Ayrim muammoli hududlardagi sug‘orish tarmog‘ini yuqori tezlikda rekonstruksiya qilish, sug‘oriladigan yerlar maydonini ko‘paytirish uchun suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalariga o‘tishdan iborat.

Qashqadaryo viloyat hokimligi tomonidan barcha toifadagi fermer xo‘jaliklarida 2027-yilgacha mo‘ljallangan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari prognozni ishlab chiqish hamda suvdan foydalanish zarurati mavjud.

Bunda aholini o‘sib borishi va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlanishi suv sig‘imi kam bo‘lgan, biroq qo‘shilgan qiymati yuqoriqoq bo‘lgan tarmoqlarni rivojlantirishni inobatga olish zarur.


Kelajakda har bir ekin maydoni tarkibiga kiradigan yer maydoni quyidagi ko‘rsatkichlar asosida hisoblash usuli bilan aniqlanadi:

hozirgi va taxmin qilingan yil uchun sug‘oriladigan yerlarning maydoni;

